1.0526 – susloni zichligi, kg/l

O'rta hisobda bijg'iydigan maltoza miqdori:

$$21052 \cdot 0,13 / 100 = 27,4 \text{ kg}$$

Va ajralib chiqayotgan issiqlik miqdori:

$$Q_1 = 27,4 \cdot 146,6 = 4017 \text{ kkal} \text{ yoki } 27,4 \cdot 361,8 = 16818 \text{ kDj}$$

Atrof muhitga ketadigan issiqlik quydagi tenglamadan aniqlanadi:

$$Q = F \Delta t 2 \alpha \text{ kkal/soat yoki kDj/soat}$$

Bu yerda:

F- rezervuarning devori, tubi va qopqog'I yuzasi

n- konvektiya va nurlanishdagi issiqlik berish koeffisienti

kkal/(m² soat grad) yoki Vt/(m²* grad)

Δt – rezervuar devori va atrof havosining t li orqali C konveksiya va nurlanishda yo'qotgan issiqlik miqdorini

α - koeffisientni quydagi formula orqali hisoblanadi:

$$\alpha = 8.4 + 0.06 \Delta t \text{ kkal}/(\text{m}^2 \text{ soat grad})$$

$$\alpha = 9.74 + 0.07 \Delta t \text{ Vt}/(\text{m}^2 * \text{ grad})$$

Bijg'itish bo'limi isitmaydigan joyda bo'lsa, havo haroratini 6⁰ C deb qabul $\alpha = 8.4 + 0.06(12-6) = 8.76 \text{ kkal}/(\text{m}^2 \text{ soat grad})$

$$\alpha = 9.74 + 0.07 (12-6) = 10.16 \text{ Vt}/(\text{m}^2 \text{ grad})$$

Unda atrof muhitga ketadigan issiqlik miqdori

$$Q_2 = S * 8.76 * (12 - 6) = 42 * 8.76 * (12 - 6) = 2208 \text{ kkal/soat}$$

Bijg'ish boshlanganida susloni.harorati 12 gacha ko'tariladi deb qabul

qilamiz. Susloni pishirishga sarflangan issiqlik hisobga olmaymiz.

Suv va spirt bulg'anishga sarflanadigan issiqlik miqdorini bijg'ishi davomida

ajralib turadigan issiqlikni umumiy miqdoriga nisbatan 6% deb qabul qilamiza. $Q = 4017 * 0,06 = 241 \text{ kkal/soat}$ Yoki

$$Q = 16818 * 0,06 = 1009 \text{ kDj}$$

Sovutilgan suvga issiqlik o'tkazish maydonidan kerak bo'ladigan issiqlik

moqdori:

$$Q = 4017 - 2208 - 241 = 1568 \text{ kkal}$$

Yoki

$$Q = 16818 - 9217 - 1009 = 6592 \text{ kD}$$

Achitqini (Suslani) pishirishda ajralib chiqadigan suv miqdori

Asosiy malumotlar:

Achitqini (suslani) dastlabki konsentratsiyasi $B_H = 8.5\%$;

Achitqini (suslani) ohirgi konsentratsiyasi $BK = 10.5\%$;

Qozondagi achitqini birlamchi miqdori $V = 2000 \text{ дал}$;

Achitqini zichligi $p = 1033.9 \text{ kg/m}^3$.

Achitqi pishiriladigan qozonda parlatiladigan suv miqdorini aniqlash, W mahsulotlari balansi hisobiga tenglama orqali aniqlanadi, uni hisoblashda, susladagi quruq moddalarni pishirilishigachan va pishirilgandan kegingi miqdori doimiy bo'lib qoladi:

$$SB_H = (S-W) BK / 100$$

Bundan ; $S = Vp$ - suslaning dastlabki miqdori, kg.

Material balansning teglomasiga ega bo'lamiz

$$W = S (1 - BH/BK) = 20 \times 1033.9 (1 - 8.5 / 10.5) = 3939 \text{ kg.}$$

Pivo achitqisini pishirish uchun bug'ning miqdori

Asosiy malumotlar:

Qozondagi Achitqini boshlang'ich holatdagi miqdori $V = 2000 \text{ dal}$;

Achitqini temperaturasi $t = 60^\circ \text{C}$;

Achitqini boshlang'ich zichligi $p = 1033.9 \text{ kg/m}^3$

Achitqidagi quruq moddalarni konsentratsiyasi $BH = 8.5\%$;

Achitqini qaynatishdagi suvni bug'lanish miqdori $W = 3939 \text{ kg}$;

Qizituvchi bug'ning bosimi $p_2 = 2.5 \text{ at}$; Achitqi pishiruvchi qozonni foydali ish koefisienti $\eta = 0.95$

Achitqi pishiruvchi qozonda piva achitqisini pishirish uchun sarf bo'ladigan bug'ning miqdorini hisoblash.

Issiqlik balansini hisoblash tenglamasi orqali pishirish qozonidagi pishirish uchun sarf bo'ladigan bug' miqdorini aniqash.

Achitqi (suslo) pishiruvchi qozonni issiqlik balansi

Issiqlik ta'minoti	Issiqlik sarfi
--------------------	----------------

C susla VpCcto	Susla bilan (VpCc-WcB) t1
C isituvchi bug' bilan Dir	Ikkilamchi bug' bilan WiB
	Kondensat bilan DΘ
	Issiqlikni yoqotilishi Q II

Bundan: Cc – Achitqini issiqlik qamrovi kkal / (kg • gradus) yoki kDj / (kg • gradus);

D - isituvchi bug'ni sarfi, kg;

t1 - 100 ° C ga Yaqin bo'lgan achitqini qaynash temperaturasi;

ir, iB- ikkilamchi va isituvchi bug'ning Issiqlik qamrovi kkal / kg yoki kDJkg

Θ - kondensatni issiqlik qamrovi kkal / kg yoki kDJ / kg

Issiklik balansini tenglamasini tuzamiz:

$$V \cdot pccto + Dir = (Vpcc - WcB) t1 + WiB + D\Theta + Q_{II}.$$

Bu yerdan isituvchi bug'ni sarfini topamiz.

Achitqini boshlang'ich miqdori $V_p = 20 \cdot 10^{33.9} = 20\,678$ kg.

Achitqisimon moddalarini solishtirma issiqlik sig'imini o'rta o'lchamli qiymati

bo'yicha achitqini solishtirma issiqlik sig'imini aniqlaymiz - $C_o \approx 0,34$ kkal / (kg • gradus) yoki 1.42 kDJ / (kg • gradus) - va suv;

$$C_c - C_o \times 100 - W/100 + 1 \times W / 100 = 0.34 \times 0.085 + 0.915 = 0.94 \text{ kkal / (kg • gradus)}$$

Yoki

$$C_c = 1,42 \cdot 0,085 + 4,1868 \cdot 0,915 = 3,95 \text{ kDJ / (kg • gradus)}$$

Isituvchi va ikkilamchi bug'ni issiqlik sig'imini, suv bug'ini jadvaliga muvofiq aniqlaymiz (1 ilovadagi jadvalga qarang).

$$ir = 652.4 \text{ kkal / kg yoki } 2731.5 \text{ kDJ / kg}$$

$$iB = 638.8 \text{ kkal / kg yoki } 2674.5 \text{ kDJ / kg}$$

Bug'ni sarfi, umumiy sarfidan 5% issiqlik sarfi qabul qilingan holda, hisoblanadi (qozonni foydali ish koefitsenti 0.95):

$$D = 20\,678 \cdot 0,94 (100-60) + 3939 (638,8 - 100) / 0,95 (652,4 - 100) = 5526 \text{ kg}$$

$$D = 20\,678 \cdot 3,95 (100-60) + 3939 (2674,5 - 418,7) / 0,95 (2731,5 - 418,68) = 5531 \text{ kg}$$

O'lchov birligini hisoblash vaqtidagi sarf etiladigan bug'ni miqdoriy farqi o'tkazish koefitsientini qo'llash natijasida hosil bo'lgan, sanoq belgilarini chegaralangan, birlikni hisoblashda o'lchash belgilari soni o'zgarishi chegaralangan.

Pishiruvchi agregatlarni hisoblash

Agregatlarni ishlab chiqarish miqdorini aniqlash. Pishiruvchi agregatlarni ishlab chiqarish quvvatini aniqlashda "Giprospirtbino" instituti sutkasiga (pishirishda) quyidagi aylanish qiymatini tavsiya qiladi:

- ikki apparatli agregatlar uchun - 2
- to'rt apparatli agregatlar uchun - 3,6 – 4
- olti apparatli agregatlar uchun - 6
- to'rt apparatli agregatlar uchun agarda filtratsiyon chan o'rniga filtr press bo'lsa – 5

Tajribaviy – statik normallardan foydalangan holda pishiruv agregatini o'lchamini taxminan hisoblash mumkin.

Ishlab chiqarishning texno – kimyoviy nazorat

Solod tarkibidagi ekstraktiv moddalarni aniqlash

Ishdan maqsad: solod tarkibidagi ekstraktiv moddalarni aniqlash

Ishni bajarish tartibi: og'irligi oldindan tortilgan hajmi 800 ml li stakanga 50 gr maydalangan solod solinadi. Maydalangan solodga temperaturasi 47 °C 300 ml disterlangan suv solinadi va stakanni suv hammasiga quyiladi. Suv hammomining harakati 47 °C bo'lishi kerak. Tayyorlangan zator shu haroratda 30 min ushlanib, vaqti-vaqti bilan aralshtirilib turiladi. Zator harorati minutiga 1°C dan oshirilib,

70°C gacha ko'tariladi.

Zatorning harorati 70°C gacha yetganda, harorati 70°C li 100 ml disterlangan suv qo'shiladi. Zator shu haroratda bir soat davomida shira tortiriladi. So'ng shira tortgan zator xona haroratigacha so'vtiladi. Stakan ichidagi termometr va shisha tayoq oz miqdordagi suv bilan stakan chayiladi. So'ng stakanni suv hammomidan olib, uning yong tomonlarini quruq latta bilan artiladi va stakan ichidagi zatorni massasi 450 gr gacha yetguncha disterlangan suv qo'shiladi. Zator yaxshilab aralashtirib, filtrlanadi. Filtrdan chiqqan birinchi sharbat qayta varonkaga solinadi. Tayyorlangan zatorning hammasi filtrlovchi varonkaga sig'ishi shart.

Filtrlash jarayoni varonka ichidagi drobinka yuziga birinchi yoriq holis bo'lganda, tugagan hisoblanadi. Agar zator sekin filtrlanayotgan bo'lsa ham filtrlash jarayoni 2 soatdan oshmasligi kerak.

Zator tarkibidagi ekstraktiv moddalarni aniqlash uchun filtrlangan filtratdan pikmometr usulida pivo sharbatini nisbiy zichligi aniqlanadi va pikmometr ko'rsatkichi bo'yicha jadvaldan ekstraktiv moddalarni (mas %)dagi qiymati topiladi.

Solodning ekstraktivligi (%) hisobida solodni namligini bilgan holda quyidagi formula bilan avval (vozdushno suxoe)

$$E_1 = b \cdot (800 + W) / 100 - b$$

e – suslo tarkibidagi ekstraktiv moddalarning miqdori, %

$$E_2 = 100 \cdot E_1 / 100 \cdot w$$

Solodning ekstraktivligini aniqlaydigan formula quyidagicha topiladi.

Laboratoriya sharbatini 100 deb hisoblasak, undagi ekstraktiv moddalarni e deb olamiz, suv (100 – e) bo'ladi. Faraz qilamizki zatordagi ekstraktiv moddalar va suvning miqdori huddi sharbatdagidek nisbatda deb qabul qilsak, u holda quyidagi

prororsional bog'liqlik kelib chiqadi.

(100 – e) gr suv (e) gr miqdordagi ekstraktiv moddaga to'g'ri keladi. (V) gr suv (E) gr ekstraktiv moddaga to'g'ri keladi.

Bundan:

$$E=b-V/100-b$$

V – zatordagi taxlil uchun olingan va solod bilan kiritilgan suvning umumiy massasi (800 + W) unda:

$$E_1=b(800+W)/100-b$$

Tovar holdagi pivoning sifat ko'rsatkichlarining aniqlash

Na'muna olish:

Ishdan maqsad: tovar holdagi mahsulotdan na'muna olishni o'rganish.

Pivodan na'muna olish tahlillarini tafsia asosida olib boriladi.

Yetilgan pivoni quyish yoki quymaslik masalasi mahsulot realizatsiyasi

qilinmasdan 2 – 3 kun oldin yetilgan pivo turgan tankning na'muna olish jo'mragi

orqali pivodan na'muna olinadi. Agar bir vaqtning o'zida bir nechta (2- 5)

tankdagi pivo (partiya) quyiladigan bo'lsa, u holda na'muna yuqorida aytilganidek

olinadi, ammo olinayotgan na'munaning miqdori bir kun avval uning asosiy

kimyoviy ko'rsatkichlari aniqlangandan keyin hal etiladi. Bir-biriga proporsional

bo'lishi kerak. Olingan hamma pivo bitta idishga solinib, yaxshilab aralashtiriladi

va undan 1 l ajratib olinadi. Bu aralshma partiyadan olingan o'rtacha na'muna

hisoblanadi. Agar pivoni sifati quyish jarayonida nazorat qilinayotgan bo'lsa, u

holda na'muna filtrlangan pivo turgan forfaslardan olinadi.

Bochkadagi pivodan na'muna olish ham na'muna olish jo'mragi orqali

amalga oshiriladi. Hajmi 0,5 l li 4 toza butilkaga pivo olinib, ularni bitta idishga

o'rtacha na'muna olinadi.

Butilkaga quyilgan pivodan na'muna olish uchun har bir partiyadan 4 – 6 ta butilka ajratib olinadi va o'rtacha mojerga olinadi.

Pivodagi CO₂ gazi miqdorini aniqlash kerak bo'lgan na'muna uchun 0,5 l toza, quruq, og'irligi aniq bo'lgan butilka tanlab olinib, har birining ichiga 10 ml dan mahsus ishqoriy eritma solingan bo'lishi kerak.

Agar qandaydir sabablarga ko'ra, olingan na'muna shu kuni tahlil qilish ilojisi bo'lmasa, i holda na'muna qopqoqlangan holda, 5 °C dan yuqori bo'lmagan haroratda qorong'u joyda saqlanadi. Tahlil uchun olingan pivo tarkibidan albatta, CO₂ gazi chiqarib tashlangan bo'lishi kerak. Buning uchun avval olingan na'muna xona haroratida sekin, keyin tezroq chayqatiladi va bir necha bor bir stakandan ikkinchi stakanga gazi to'liq chiqib ketguncha quyiladi. So'ng pivoda bir necha marta filtr qog'oz bilan filtrlanadi.

Pivo tarkibidagi alkogol miqdorini distillyatsion usulida aniqlash

Ishdan maqsad: tovar pivo tarkibidagi alkogol miqdorini aniqlash.

Ishning bajarish tartibi: tahlilni boshlashdan avval haydov kolbasi va distillyat uchun olingan kolba texnik tarozida $\pm 0,1$ gr aniqlikda tartib olinadi. (kolbalar toza va quruq bo'lishi kerak). Shundan so'ng haydov kolbasiga gazi chiqarib yuborilgan pivodan 200 gr solinadi. Distillyat uchun olingan kolbaga 10 – 15 ml distillangan suv solinadi va pivoni haydash jarayoni boshlanadi. Distillyat uchun olingan kolba yoz kunlari soviq suv yoki muz solingan idishga solinib qo'yiladi. Haydash jarayonida haydash qurilmasidagi xolodilnikdan to'xtovsiz suv oqib turishi kerak. Haydov kolbasidagi pivo dastlab sekin qizdiriladi va qaynash bir tekisda bo'lgach yuqori haroratda qaynatiladi. Haydash jarayonida shunga e'tibor berish kerakki, haydov kolbasining devorlarida pivoning ekstraktiv moddasi ko'chib ketmasligi kerak.

Distillyat qabul qilayotgan kolbaning $\frac{2}{3}$ yoki $\frac{3}{4}$ qismigacha spirt suvli distillyat yig'ilgach (na'muna uchun olingan piovning hajmiga nisbatan) haydash jarayoni to'xtaliladi.

Avval elektr plita bir oz vaqt o'tgach soviq suv manbai o'giriladi. Shundan so'ng haydash qurilmasidan haydov kolbasi so'ng distillyat qabul qiluvchi kolba olinadi.

Distillyat qabul qiluvchi kolba taroziga quyilib, suyuqlikning og'irligi 200 gr bo'lguncha distillangan suv solinadi. (haydash uchun olingan pivo og'irligiga teng bo'lguncha) So'ng kolbadagi suyuqlik yaxshilab aralashtiriladi va 20 °C haroratda piknometr usulida suyuqlikning nisbiy zichligi aniqlanadi. Nisbiy zichlikning qiymatiga qarab jadvaldan pivo tarkibidagi alkogolga mos keluvchi qiymat topiladi.

Pivo tarkibidagi titrlangan kislotaliyligini qizil femolftalin ishtrokida aniqlash

Ishdan maqsad: pivoni kislotaliligini aniqlash ikki turi mavjud. Elektrolit titrlash usuli, qizil femolftalin ishtrokida titrlash usuli.

Ishni bajarish tartibi: qizdirish yo'li bilan CO₂ gazi ajratib olingan pivodan hajmi 50 ml li pipetkada olinib, hajmi 150 – 200 ml li konussimon kolbaga solamiz va 0,1 H OH eritmasi bilan titrlaymiz. Titrlash jarayoni oq chinni plastinka ustiga shisha tayoqcha bilan tomizilgach, 4 tomchi pivoga 2 tomchi qizil fenoeftoin tomozilganda uning ranggi o'zgarmaguncha davom etadi (30 sek davomida).

Pivoni titrlash uchun sarf bo'lgan ishqor miqdorini (ml dagi) 0,2 ga ko'paytiriladi va 100 ml pivo uchun sarflangan ishqorning ml miqdoridan pivoni kislotaligini kelib chiqadi.

Pivoni ranggini aniqlash

Ishdan maqsad: Pivo sharbati va pivoni rangini aniqlash. Rangni aniqlashni 2 usuli mavjud: kolorimetrik titrlash va FEK yordamida aniqlash.

Ishni bajarish tabtibi: tahlil uchun olingan pivo tarbibidan CO_2 gazi to'liq chiqariladi va hajmli 150 ml li ikkita bir xil stakan olinadi. Stakanning bittasiga 100 ml li hajmli pipetkadan 100 ml distillangan suv, ikkinchisiga 200 ml pivo solinadi va ikkala stakan oq chinni plastinka ustiga qo'yiladi. Distillangan suv solingan stakanga 0,1 H Y₂ eritilmasidan tomchilab titrlaymiz va shisha tayoqcha bilan aralshtirib turamiz. Stakandagi suvning rangi pivoning rangiga mos kelgach titrlash to'xtatiladi. Agar pivoni rangi to'q bo'lsa, u holda pivo suyultiriladi va hisoblash vaqtida suyultirish darajasi inobatga olinadi.

III. AVTOMATLASHTIRISH, MEHNAT MUHOFAZASI VA IQTISODIYOT QISMI

ISHLAB CHIQUV JARAYONINI NAZORAT QILISH VA AVTOMATLASHTIRISH QISMI

Topshiriq: Pivo achitqisi ishlab chiqarishdagi asosiy uskunalaridan biri bijg'ishchanini avtomatlashtirish.

Asosiy uskunaning texnik harakteristikasi :

1. SKTmarkali uskuna SKT -9,5

2. Sig'imi- 9.5 ,

3. Diametri- 1400mm,

4. Gabaritlari:

a.Uzunligi- 7100mm

b. Eni- 2000 mm

c. balandligi 7100 mm

Sifatli maxsulot olinishida berilgan qiymatlarni saqlab turishdir.

Bitiruv ishini bajarishda obyekt sifatida pivoni ishlab chiqarishda bijg'ishchani tanlab olinadi. Boshqariluvchi obyekt . Jarayondagi o'zgartiriladigan obektning asosiy korsatgichi:

$$t_{\max} = 24^{\circ} \text{C}$$

$$t_{\min} = 20^{\circ} \text{C}$$

$$t_{o'rt} = 22^{\circ} \text{C}$$

miqdorida o'zgarishi mumkin, temperaturani o'zgarishi chegarasi = $\pm 2^{\circ} \text{C}$

Obektning xarakterini aniqlash.

Hisoblashni kompyuterda MATLAB dasturi asosida 3 sig'imli obekt

modelini borligini inobatga olib, biz xam meyorlovchi qurilmadagi boshqaruv

jarayonini 3 sig'imli deb qabul qilamiza.

Obektning o'tuvchi jarayoning egri chizig'I quydagi keltirilgan "MATLAB" dasturi asosida boshqaruv tiziminig dinamikasining kompyuter modelini tuzamiz.

Mehnat muhofazasi

Hozirgi kunda mamlakatimizda pivo achitqisi ishlab chiqarish korxonalarida mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Mehnatni muhofaza qilish bitiruv ishiga ahamiyati shundaki, pivo ishlab chiqarish korxonalarida pivo achitqisi ishlab chiqarish va saqlash avtomatlashtirilgan va mexanizatsiyalashtirilgan. Ichki hodimlar yong'indan himoya vositalari va mahsus kiyimlar bilan ta'minlanmoqda.

Hozirgi kunda korxonalarda sanitar gigiyenik holatga alohida e'tibor berilmoqda, chunki texnologik jarayonlarni noto'g'ri tashkil etish arpa va solodlarni saqlashda o'z-o'zidan qizish jarayonini oldini olish maqsadida solod va arpa bir silosdan ikkinchi silosga qayta solinishi natijasida sexda chang hosil bo'ladi, bu chang ishchining sog'lig'iga zarar yetkazadi. hamda ishlab chiqarish jarayoniga salbiy ta'siri yo'q. Sex yon tomonidan yonitilishi xonalardagi ishlab chiqarish muhitda to'liq yonitishga imkon yaratadi.

Bugungi kunda korxonada CH₄ T asosan inson uchun zarasiz yoritish vositalaridan foydalaniladi. Bular hammasi CH₄ T –0056–96ga amalga oshiriladi. Korxonada elektr mehanik bo'limi tomonida amalga oshiriladi. Ular barcha elektr tokida ishlaydigan uskunalarni nazorat qiladilar. Katta kuchlanishda ishlaydigan uskunalarning simlari qizishi natijasida, kabellarni izolyatsiya qismi yonishi, ochilib qolish holatlari ro'y berdi. Bu esa baxtsiz hodisani keltirib chiqarishga sabab bo'ladi. Bundan tashqari yuqori kuchlanish bilan ishlaydigan uskunar har yili nazoratdan o'tkaziladi.

Korxonada qo'llaniladigan shaxsiy himoya vositalari ishlab chiqanish sexlaridagi jarayoniga bog'liq holda xodimlarga tarqatiladi. Suv o'tkazmaydigan etik, qo'lpoq va bosh kiyimlar bilan ta'minlanadi. Quyish sexida esa shovqindan himoya qiluvchi vositalardan foydalaniladi. Bu vositalarni barchasi tekshirilib, eskisiyangisiga almashtiriladi.

Korxonada xonalardan chiqish yo'llari to'siqsiz bo'lishi kerak. Shuningdek evakuatsiya vositalari har bir etajda ko'rsatilgan. Chiqish yo'llaridagi evakuatsiya eshiklari ma'lum talablarga binoan to'siq qo'yilmagan yoki maxkamlangan bo'lishi, shuningdek eshiklarning eni 98m, bo'yi 2 m dan kam bolmasligi lozim deb topilgan. Evakuatsiya chiqish yo'llari ishlab chiqarish jarayonida doimo ochiq turishi talab etiladi. Bu talablar korxona loyhalanayotganda hisobga olinadi.

Korxonada yong'inga qarshi kurashuvchi hodimlar, hovlisida mavjud bo'lgan bir nechta ishchilarga suv to'ldirilgan bo'lib, shu sig'imdagi zahina suv miqdorini tekshirib ularga ulangan truba suvning ketishini nazorat qiladilar. Barcha talablar CH₄ T 2.02.02 – 85 ga asoslanadi.

Korxonada yong'inni o'chirish birlamchi vositalari mavjud. Bularga misol tariqasida chelak, suvli bochka, belkurak, qumli quti, asbest va boshqalar bilan jixozlangan. Sodir bo'lgan yong'inni cheklash uchun yonish zonasiga o'tadigan havo yoki yonuvchi modda miqdorining kamaytirilsa yopiq jarayoni to'xtamaydi. Shuningdek yong'inni o'chirish uchun suv, suvning kimyoviy eritmalari, ko'pik turli aralashmalar ishlatiladi. Bularga misol qilib vaqtincha ishlaydigan kimyoviy ko'pikli o't o'chirgik ПС – 1, ОП ПСБ turidagi kukun vositalari keltirish mumkin.

Korxonalarda yong'indan darak beruvchi vosita yordamida yonayotgan manba yoki joyni o'z vaqtida bilib olishida, o't o'chirish bilishni chaqirishda,

shunigdek o'chirishni tezda tashkillashtirishda yordam beradi.

Yong'in haqida darak berish vositalaridan biri shahar telefon tarmog'i hisoblanadi.

Yonish manbasini belgilab ma'lumot berishda optik simlar, alanganing harorat tebranishi tutun chiqishi, issiqlik nuri, atrof-muhitni ionlanish darajasi, harorat va bosimning o'zgarishi kabi muhim holatlar hisobga olinadi. Shular ta'sirida ishlaydigan darakchilar ham mavjud. Ular to'g'ridan – to'g'ri markaziy yong'in boshqarmasiga ulanadi va yong'indan habar beradi.

Korxonalarda ko'pchilik o't o'chirish drujinasi tashkil qilish kurashning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Chunki bu drujinaga mahsus tayyorgarlikdan o'tgan, korxonaning har bir nuqtasini biladigan, yong'inga havfli moddalarni joylashgan o'rnidan habardor bo'lgan hodimlar jalb qilinadi. Ular favqulotda intruktaj o'tkazish huquqiga ham egadirlar. Ularning mavjudligi muhim ahamiyat etadi. Chunki aler yong'in chiqish joyini tezda hamda aniq belgilashadi. Bu esa korxona hamda hodimlar havfsizligi ta'minlashga imkon beradi.

Korxonalarni havoda hosil bo'lgan chaqmoq yashindan himoya qilish chanolari $\tilde{N}_4 \approx 201,03 - 96$ ga asoslangan. Katta kuchlanishga ega bo'lgan yashin (150 mln B) yer ustidagi inshootlarni to'g'ri kelishi natijasida buzilishiga, yonuvchi moddalarga tegib alanganishiga olib keladi. Yashinni neytrallash uchun mo'ljallangan himoya kompleksi yashinni qabul qiluvchi, tokni uzatuvchi vosita, antenali va to'rsimon shaklda bo'lishi mumkin. Demak korxonalar mana shunday jihozlar bilan ta'minlandan bo'lishi lozim.

Fuqaro muhofazasi

O'zbekiston Respublikasi mustaqil taraqqiyot va jamiyat munosabatlarini yangilash yo'liga kirib, taraqqiy etgan davlatlar qatorida o'zining munosib o'rnini topishga, "kelajagi buyuk davlat" bo'lishga intilmoqda. Prezidentimiz I. A. Karimov o'zining "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, havfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida "Islohotning bu murakkab yo'lini tanlab qanday muammolar, qiyinchiliklar bilan yuzma-yuz kelishimizni tasavvur qila olamizmi?" savolni bekorga qo'ymagan edi. Negaki xalqimizni favqulodda vaziyatdan himoyalash vazifasiga e'tibor qaratilishi lozimligini ko'rsatdi. Fuqaro muhofazasi (FM) umumdavlat mudofaa ishi bo'lib aholini va xalq xo'jaligi obyektlarini tinchlik va xarbiy holatlarda favqulodda vaziyatlardan himoyalash obyektlarning barqarorligini oshirish va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlar bilan shug'illanadi.

Prezidentimiz asarlarida "olib borilayotgan siyosatimizning asl mohiyati aholining havfsizligini ta'minlash ularga turli taziq va favqulodda holatlardan himoya qilishdir" deb ta'kidlaganlaridek, ushbu masalalar davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ushbu sohadagi vazifalarni amalga oshirish va tartibga solish maqsadida 1996-yil 4-martda O'zbekiston Respublikasi Favqulotda Vaziyatlar Vazirligini tashkil etish to'g'risidagi Prezident Farmoni e'lon qilindi. Ushbu farmon aholini va xalq xo'jaligi obyektlarini favqulotda vaziyatlardan muhofaza qilishning samarali tizimini tashkil etish, tabiiy va texnogen favqulotda vaziyatlarni oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishga, davlat moddiy va ma'naviy boyliklarini himoya qilish masalalari o'z ifodasini topgan.

So'nggi davrlarda jahonda terorizm havfi jiddiy us olib bormoqda. Terroristik

hurujlar begunoh insonlarning hayoti, mol – mulk va moddiy boyliklarning yo'q qilishi va ertangi kunga ishonchini yo'qolishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishgandan so'ng o'tgan qisqa vaqt ichida bir necha terroristik hurujlar qurolli to'qnashuvlarni boshidan kechirdi. Ushbu sohadagi masalalarni tartibga solish maqsadida 2000 yil 15- dekabrda 31 moddadan iborat bo'lgan "Terrorizmga qarshi kurash" to'g'risidagi O'zb. Resp. Qonuni qabul qilindi.

Pivo achitqisi ishlab chiqarish korxonada bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarda ogohlantiruvchi va havfsizlikni ta'minlashga qaratilgan asosiy yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

- Favqulotda vaziyatlarning va ularning oqibatlarini oldini olish
- Favqulotda vaziyat paydo bo'lishi ehtimolini yoqotish yoki kamaytirish tadbirlarini rejalashtirish
- Bo'lishi mumkin bo'lgan favqulotda vaziyatni taxminlash va baholash
- Mahsulot ishlab chiqarishning texnologik jarayonini tashkil qilish moddalarni texnika havfsizligi qoidalariga rioya qilib saqlash, tashkiliy tadbirlarni ishlab chiqarish va qo'llash
- Moddalarni tashish havfsizligini ta'minlash
- Korxona inshootlaridagi xodimlarni texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilishga o'qitish
- Favqulotda vaziyatlardan aholini muhofaza qilish rejalarining unumligini oshirish va bajarishga imkon berish
- Havfli inshootlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulotda vaziyatlar oqibatlarini tugatishga kerakli kuch va vositalarning mavjudligi va tayyorligini ta'minlash.

Obyektlarning favqulotda vaziyatlarnida barqarorligini tashkiliy, injener texnik, va boshqa tadbirlar majmuasi tadbiq etish orqali amalga oshiriladi. Bu tadbirlar dastavval favqulotda vaziyatlarning vayron qilivchi ta'siridan ishchi va hizmatchilarni himoyalashga qaratilishi kerak, ular qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni tayyorlash va o'tkazish tadbirlari bilan uzviy bog'liqdir.

Obyektdagi ish jarayoyini barqarorligi quyidagi omillarga bog'liq

1. Ishchi kuchi bilan ta'nimlanganlik va ularning himoyalanganligi.
2. Favqulotda vaziyatda zararlovchi omillarning injener texnik majmuasining barqarorligiga ta'siri
3. Ta'minotning barqarorligi
4. Ikkilamchi omil ziyonini kamaytirish yoki cheklash
5. Boshqaruvning barqarorligi
6. Favqulotda vaziyatlarga oldindan tayyorgarlik ko'rib chiqish

Fuqaro muhofazasi injener texnik chora – tadbirlarni loyihalash davlat standartlarda va QMQ larda, obyektlarni fuqaro muhfazasi talablariga javob beradigan qilib loyihalash va qurish СНИП 2.0,1.51 – 90 da tizimlashtirilgan.

Tabiiy va texnogen tusdagi favqulotda vaziyatlar korxonalarda yuz berganda va turli favqulotda vaziyatlarda fuqarolarni muhofaza qilishning eng samarali usulibu fuqarolarni evakuatsiya qilishdir. Yong'inga qarshi korxonaning har bir sexida o't o'chiruvchi vositalar bilan ta'minlanadi. Oziq-ovqat xom ashyosi va oziq-ovqat mahsulotlarinig havfsizligi hamda oziqaviy qiymati bo'yicha sanitariya meyorlarida belgilangan normalardan oshmasligi kerak.

Favqulotda Vaziyatlar vaqtida qutqaruv ishlari

Yer qimirlaganda (zilzila) – aholini evakuatsiya qilish mahhaliy yohut mintaqaviy tusda bo'lishi mumkin. Evakuatsiya o'tkazish muddatlari yo'l transport

imkoniyatlariga qarab belgilanadi. Shkaslangan joylardan aholini evakuatsiya qilish evakuatsiya qilingan aholini yeg'ilish joyi yo'lga qo'yib 1 bosqichda, ishlab chiqarish huddudiy prinspl asosida amalga oshiriladi.

Kimyoviy zaharlanishda – bevosita kimyoviy xavli obeklar (KXO) yaqinida yashab turgan aholi vaqt yetmasligi sababli, odatda, havli hudduddan olib chiqilmay balki jips yopiladigan pana joy va honalarga joylashtiriladilar va nafas olish yo'llarini shaxsiy muhofaza vositalari bilan homoya qilish choralari ko'riladi. Aholini qolgan qismi amalda yuzaga kelayotgan sharoitga qarab, eng qisqa mudadlarda asosan aralash tartibda ko'chiriladi. Halokatni yong'in sodir bo'lganda – aholini evakuatsiya qilishni uyushqoqlik bilan o'tkazish maqsadda quyidagi turlari rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

1. Tibbiyot
2. Jamoat tartibini aniqlash
3. Transport
4. Yo'l harakati havsizligini ta'minlash
5. Muhandislik
6. Moddiy texnikaviy
7. Aloqa va habar berish
8. Kuzatuv ta'minotlari

Homashyo yarim mahsulot va tayyor mahsulotni havfsizligi .

Korxonada ishlatilayotgan hom ashyoning turlari taabiy kelib chiqqan. Hom ashyo saqlanishi mahsus ajratilgan zonalarda kechadi. Odamlar uchun deyarli ta'siri yo'q. Yarim mahsulot tafsifi tayorlanib bo'lishiga oz muddatdagi mahsulotning yetib borish davridir. Yarim mahsulot saqlanish texnologik jarayon talablariga asoslangan. Yarim mahsulot odamga korhonada ishlab

chiqariladigan tayyor mahsulot qadoqlanish biz ko'rib chiqayotgan mavzu bo'yicha asosan 0,5 hajimdagi shisha butulkalarga va 1 – 1,5 litr hajomga ega bo'lgan PET (poletirin) idishlarga quyiladi. Tayor mahsulot saqlanishi oddiy xona harorati, namligiga teng muddati 6 oydan 1 yilgacha. Transportirovkasi 20, 4, 6 donali politelen idishlarga va kegi idishlarga joylashtirilib keyin ularni oddiy avto transport yoki temir yo'llari orqali Respublika miqyosida tarqaladi va olib boriladi.

Atrof muhit muhofazasi

Hozirgi vaqtda jahon fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanish bilan tabiiy zahiralardan xo'jalik maqsadlarida toboro ko'proq foydalanilmoqda. Buning ustiga dunyo aholisi yildan – yilga o'sib borib ko'proq miqdorda oziq-ovqat, yoqilg'i, kiyim-kechak va boshqa narsalarni ishlab chiqarish talab qilinmoqda. Bu esa o'rmonlar egallab turgan maydonlarning jadal suratlarga qisqarishiga cho'l sahrolarning bostirib kelishiga, tuproqning buzilishiga, atmosferaning yuqorida joylashgan ozon qatlamini kamayib ketishiga, yer havosining o'rtacha harorati ortib borishiga va boshqa holatlarga sabab bo'moqda. Hozirga kunda O'zbekistonda quyidagi ekologik muammolar mavjud:

- Birinchidan yerning cheklanganligi va uning sifat tarkibi pastligi bilan bog'liq xavf bilan to'xtovsiz ortib bormoqda. Respublikaning 447.4 ming kv. km dan ortiq bo'lgan umumiy maydoning atigi 10% ni ekin maydonlari tashkil etadi. Ayni chog'da O'zbekiston egallab turgan maydonning ancha qismini Qoraqum, Qizilqum, Ustyurt kabi cho'l va yarim cho'l yerlar tashkil etadi.

- Ikkinchidan, O'zbekistonning ekologik havfsizligi nuqtai nazardan qaraganda, suv zahiralarning shu jumladan yer usti va yer osti suvlarinig keskin ifloslanganligi katta tashvish tug'dirmoqda.

- Uchinchidan, Orol dengizini qurib borishi xavfi g'oyat keskin muammo bo'lib qoldi.

1911 – 1962-yillarda ozol dengizining satxi eng yuqori nuqtada bo'lgan bo'ib, 53.4 m.ni, suvning yuzasi 66 ming kv. km va minerallashuv darajasi 1 l suvda 10-11gr tashkil etgan edi. Orolning sohillari 60-80 km chekindi, satxi 20m pasayishi natijasida u endi yaxlit dengiz emas, balki 2 ta qoldiq ko'lga aylanib qoldi.

- To'rtinchidan havo bo'shlig'ining ifloslanishi ham respublikada ekologik

havfsizlikga solinayotgan taxdiddir.

Mutahassislarning ma'lumotiga qaraganda, har yili respublikaning atmosfera havosiga 4 mln t.ga yaqin zararli moddalar qo'shilmoqda. Shularning yarmi uglerod oksidiga to'g'ri keladi, 15% uglerod chiqindilari, 14% oltingugurt oksidi, 9% azot oksidi, 8% qattiq moddalar tashkil etadi, va 4% yaqin o'ziga xos o'tkir zaharli moddalarga to'g'ri keladi.

Kimyo va oziq ovqatlar sanoati tarmog'iga xos bo'lgan asosiy ishlab chiqarish va ularning miqdorini kamaytirish borasida olib borilayotgan chora- tadbirlar:

a) Chiqindilarni tozalash, zararlantirish va rekapiratsiya qilishning

samarali usulini yaratish

b) Zamonaviy chiqindisi o'tish ko'rsatma.

Pivo tayyorlash korxonalarining asosiy chiqindilari chang, pivo drobinasi, xmel drobinasi, bekoviy okltoy, qoldiq pivo achitqilari va CO².

Chang chiqarish miqdorini kamaytirish bo'yicha changni ushlab qoluvchi babinalar ba'zi korxonalarda elevator bo'limida nomiyani qabul qilish qurilmasida don transportyor bo'yicha tushmasdan oldin donni oldindan tozalash jarayoni o'tkaziladi. Don kamera orqali o'tayotganda donga havoni taqsimlovchi reshotkasi orqali havo puflanadi, bunda ajralayotgan chang asperatsion qurilma yordamida havo bilan birgalikda keladi va siklonlarda tozalanadi.

Dastlabki tozalash oqibatida donga keyingi ishlov bergichlarda chang ajratish kamayadi. Solod ishlab chiqarish korxonalarida keng ko'lamda IQOP, BQ, IQY tsiklovlari, TB(TM – 15 ΦM) filtrlari, yengil so'ruvchi filtrlar (ΦB – 30, ΦB – 45, ΦB – 60, ΦB – 90) qo'llaniladi.

Oziq ovqat sanoat korxonalarida qishloq xo'jaligida va insonning kundalik ehtiyojlari sifatida katta miqdorda suv sarflanadi. Sanoat korxonasida yoki ma'lum

bir jarayonlar ishlatiladigan foydalanilgan suvlar – oqava suvlar deyiladi. Pivo tayyorlash korxonalarida solod va don maxsulotlarini namlatishda, zator tayyorlashda, filtrlash jarayonida, drotinat yuganida, pivo suslasini pishirganida suv ishlatiladi.

Oqava suvlarni ifloslik darajasi quyidagi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi:

1. Organaleptik (xidi, rangi, mazasi)
2. Fizik-kimyoviy (harorati, pH muhiti)
3. Erigan organik, noorganik moddalar miqdori (XPK)
4. Kolloid mayda-yirik va disperts zarrachalarini miqdoribilan aniqlanadi.

Oqava suvlarini tozalash uchun ularning ifloslik darajasiga qarab sinflanadi va sinfiga qarab tozalanadi. Tozalash moslamalariga tindirgich, filtrlar va boshqalar bilan tozaladi.

Toza havo tarkibiga kirmagan har qayday begona moddalar iflosliklar deyiladi, ya'ni toza havo tarkibini yomonlashtiradi. Atmosfera havosi 2 yo'l bilan ifloslanadi: tabiiy va antropogen. Atmosfera havosini ifloslanish oqibatida inson salomatligi yomonlashadi va turli kasalliklarning turlari ortib boradi, kislotali yomg'irlar yog'ishi natijasida oxakli, marmar, metall qoplamali qurilish inshootlari yemiriladi, ozon qatlamini yemirilishiga lib keladi. Bunday oqibatlarni oldini olish ko'pincha chora-tadbirlar qo'llaniladi.

Sanoat korxonalaridan chiqayotgan gazlar 5 sinfga ajratiladi va ularning har biriga quyidagi sanitar ximoya zonalari belgilangan: 1) 1000 m; 2) 500m; 3) 300m; 4) 100m; 5) 50m. Ushbu ximoya zonalari ko'klamzorlashtirilgan bo'lishi kerak.

Korxonani suv bilan ta'minlash:

Suv bilan ta'minash manbai	Suvdan foydalanish me'yori, yil m ³ /yil		Aylanma harakatdagi suv m ³ /yil	Toza suvni tejash m ³ /yil
1	2	3	4	5
Shaxar vadaprovod suvi	23	22	21	10

Oqova suvlar va ularni tozalash:

Oqova suv turlari	Oqova suv hajmi Tozalana- Tashlana- nadigan nadigan		Ifloslan- ganlik tarkibi	Tozalash usuli	Tozalovchi apparat va qurilmalar	Tozalangan suvni ishlatish
Uskunalarni yuvgandan so'ng	12,7	1.2	Organik moddalar	Kimyoviy, biokimyoviy	Tindirgich va suv havzalari	Texnologik uskuna jihozlarini yuvish uchun

Piva ishlab chiqarishdagi qattiq chiqindilarni va ulardan foydalanish usullari.

Piva ishlab chiqarishda donli mahsulotlarni birlamchi va ikkilamchi tozalash vaqtida sifatsiz va sifati past solod va arpa chiqindiga chiqadi. Zatorni filtirlash vaqtida don turli va qulmoq qoldig'i chiqadi. Don turli chorva mollariga yem sifatida ishlatiladi. Quloq qoldig'i chiqindiga tashlab yuborililadi. (taxir bo'lagi uchun)

Iqtisodiy qism

Loyihaning iqtisodiy qismi yakunlovchi hisoblanib loyihalantirilgan ishlab chiqarishning sarf harajatlari ya'ni mahsulot tan narxining va ishlab chiqarishning samaradorligini belgilovchi asosiy texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlar hisobidan iborat.

Iqtisodiy qism quyidagilardan iborat

1. ishlab chiqarish dasturi – loyiha bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulotning yillik hajmi (natural va qiymat ifodasi bo'yicha)
 2. Mahsulot tan narxidagi boshqa to'g'ri, yondosh sarflar, asosiy foydalarning amortizatsiyasi va qolgan, shu jumladan sarflar asosida mahsulot tan narhining (1 o'lcham va yillik) hisobi – korhona mahsulotlari asosida 1 o'lcham mahsulot ishlab chiqarish tan narhining konkulatsiyasi
 3. Mahsulot ishlab chiqarish tan narhidagi to'g'ri moddiy sarflarni ochib – hom-ashyo asosiy materiallar yordamchi materiallar, quvatlar va yoqilg'I sarflarining hisobi (qayta ishlanadigan chiqindi ayrim holda). Bu mahsulot korhonaning texnologik reglamenti loyihaning moddiy balansidan olinadi.
 4. Mahsulot tan narhining asosida loyiha bo'yicha foydasi, mahsulotning ulgurchi bahosi, erkin hisobi
 5. Asosiy ko'rsatkichlar hisobi – ishlab chiqarishning asosiy texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlari, mahsulotning hajmi natural qiymati ifoda bo'yicha, bir o'lcham yillik mahsulotning ishlab chiqarish tan narhi, foyda rentabili ko'rsatkichlari, bir o'lcham va yillik mahsulotning erkin bahosi, bir ishchi hodimning o'rtacha oyligi, moddiy sarflarining tan narxini o'sishi.
- Ishlab chiqarish dasturi – mahsulotning yillik ishlab chiqarish hajmi (natura va qiymat ifodasida)

№	Mahsulot nomi	O'lchami	Bir o'lcham narxi sum	Natural ifodasi	Qiymat ifodasi m.so'm.
1	2	3	4	5	6
	Pivo achitqisi	t	158387339	35	5543557

Mahsulot ishlab chiqarish tan narhining konkulatsiyasi

Yillik ishlab chiqarish hajmi-35

Mahsulot konkulyatsion o'lchami- t

№	Sarf moddalar	Sarflar qiymati	
		Bir o'lcham mahsulot uchun so'm	Yillik hajmi, ming so'm
1	2	3	4
1.	To'g'ri moddiy sarflar	124275450	4349641
2.	Mehnatga doir to'g'ri sarflar , shu jumladan:	353050	12357
a)	Ishlab chiqarishning ish haqqi	264787	9267
b)	Sug'urta ajratmalari(yagona ijtimoiy to'lov-25%)	88262	3089
3.	Materiallarga doir yondosh sarflar	617837	21624
4.	Mehnatga doir yondosh sarflar	353050	12357
5.	Asosiy fondlar amortizatsiyasi	104850	367
6.	Boshqa (shu jumladan ustama) sarflar	-	-
	Ishlab chiqarish tannarxi	125704237	4399648
	Davr xarajatlari	8799296	307975
	Umumiy sarflar	134503534	4707624
	Foyda	32683101	1143908
	Mahsulot rentabilligi	24	-

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar hisobi

№	Ko'rsatkichlar	O'lcham	Loyixa bo'yicha
1	Yillik ishlab chiqarish mahsulot hajmi	t	35
	a) natural ifodasi		
	b) tovar mahsulotning qiymati		5543557
2	1 o'lcham mahsulotning i/ch tannarxi	So'm/t	125704237
3	Yillik mahsulotning tannarxi	Ming so'm	4399648
4	Yillik foyda	Ming so'm	1143908
5	Maxsulot rentabilligi	%	24
6	1 ishlovchining o'rtacha oylik ish haqqi	Ming so'm	780
7	1 ishchining o'rtacha oylik ish haqqi	Ming so'm	750

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi mutaqil bo'lgandan beri oziq- ovqat sanoatining ko'pgina tarmoqlarida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Shu jumladan pivo ishlab chiqarishning tarmog'ida ham respublikamizani deyarli barcha viloyatlari oziq- ovqat uyushmalariga qarashli barcha korxonalar o'z korxonalarini ishini qaytatdan ko'rib chiqib davr talabiga javob beruvchi va rag'batbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun imkoniyatlaridan foydalangan holda qo'shma korxonalar ochmoqdalar.

Pivo ham alkogolli,jilvalanunchi xarakterli mayin taxir ta'mga ega bo'lgan chanqoqbosdi ichimlikdir. Pivo uchun asosiy homashyolar undirilgan arpa donidan tayyorlangan solod, ferment preparatlari, **pivo achitqisi** va suv hisoblanadi.

Menga berilgan kurs ishimda yiliga 35 tonna pivo achitqisini ishlab chiqarish berilgan edi. Va buni litrda hisobladim.

Hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab turli hil pivolar , istemol qilishga talab oshib bormoqda.Pivo aholining har xil qatlamlari orasida o'zinig betakror mayin ta'mi bilan mashhurdir. XIX asr boshidagi pivo dunyoni egallashni davom etmoqda. Oddiy so'z bilan aytganga pivo dunyoni ichimligi deb ham hisoblasa bo'ladi. Pivo ishlab chiqarish esa internet ponasonic va boshqa mashhuratamalar bilan bir qatorda turishining o'zi global ekonomikaning yaqqol misolidir.

Bundan tashqari pivo achitqisi nafaqat pivo ishlab chiqarishda balki dunyoning ko'pgina mamlakatlarda kosmetologik vosita bo'lib ham xizmat qilmoqda. Masalan yuzdagi turli hil husunbuzarlar ketqazishda ham pivo achitqisi istemol qilinadi yoki yuzga surtilida.

Pivo achitqisi ichaklarga yeg'ilib qolgan shlak va toksinlarni haydash uchun ham xizmat qiladi. Oshqozon ichak yo'llarini tozalab farmatsevtikada ham ishlatilmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. R. N. Normahmatov “Oziq-ovqat mahsulotlar tovarshunosligi” Toshkent, 2002 y.
2. Rustambekova R. T. “Don va don mahsulotlari tovarshunosligi”, “Toshkent” 2004 y.
3. Malyuyev P. M. «Химико–технологический контроль производства солода и пиво» М: «Пищевая промышленность», 1976г.
4. V.Kunse «Texnologiya soloda i piva». Izd. Professiya 2002
5. V.A.Domoreskiy «Texnologiya soloda i piva» Kiev Firma Inkos 2004
6. V.G.Tixomirov «Texnologiya i organizasiya pivavarennogo i bezalkogolnogo proizvodstv» M., «KolosS» 2007
7. V.E.Balashov «Oborudovanie predpriyatij po proizvodstvu piva i bezalkogolnix napitkov» M., Legkaya piщevaya promishlennost.
8. Арсланбеков И. Р. «Методика расчета продуктов пивоварного производства», «Ташкент», 1983 г.
9. Балашов В. Е. «Дипломное проектирование предприятий по производству пива и безалкогольных напитков», Москва, 1983г.
10. Б. Н. Федоренко «Пиво и напитки», журнал Москва 1/2002.
11. В. Г. Атаманюк «Гражданская оборона», 1988 г.
12. В. И. Попов «Оборудование предприятий пивоварной и безалкогольной промышленности», М: «Пищевая промышленность», 1974 г.

13. Е. П. Щупин «Гражданская оборона», 1987 г
14. Калуняну К. А. «Дипломное проектирование заводов по производству пива и безалкогольных напитков», М: «Агропромиздат», 1987г. Калчева Р. А., Ермалаева Г. А. «Производство пива и безалкогольных напитков», М: «Агропромиздат», 1985г.
15. Николаев «Гражданская оборона», 1989 г.
16. Э. Д. Неттевич, З. Ф. Антиканова, Л. М. Раманова «Выращивание пивоварного ячменя» Москва: «Колос» 1981г.
17. internet: <http://ru.wikipedia.org/wiki/Пиво>
<http://muzey-factov.ru/tag/beer>
<http://pivo.ru>
www.ziyonet.uz